

XALQ OG'ZAKI IJODINING TIL TA'LIMIDAGI AHAMIYATI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Mannobova Lola Abdunazar qizi

*Samarqand davlat chet tillar instituti ingliz tili o'qitish metodkasi kafedrası
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ma'lumki, har qanday yangi tilni o'rganish jarayoni, odatda, grammatik me'yorlar va so'z boyligini egallashdan boshlanadi. Biroq bu jihatlilar tilni chuqur va mukammal o'zlashtirish uchun yetarli emas. Tilni to'liq egallash, ayniqsa, so'zlashuv darajasida "native speaker" maqomiga yaqinlashish uchun o'rganilayotgan tilning tarixi, madaniyati hamda xalq og'zaki ijodi haqida chuqur bilim zarur. Ushbu maqolada e'tibor ko'pincha chetda qoladigan, lekin til o'rganish jarayonida muhim o'rin tutadigan xalq og'zaki ijodi — folklor tushunchasi tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz va o'zbek folklorining o'ziga xos va umumiy jihatlari qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: folklor, mif, afsona, bolalar folklori, yumor, ertak, askiya, lof, "Qirol Artur", "Tall tales", "Verbal folklore".

Abstract: It is well known that anyone who sets out to learn a new language typically begins with studying its grammar and vocabulary. However, mastering only these elements is not sufficient for achieving fluency. To truly gain proficiency—especially at a native-like level—it is essential to develop a deeper understanding of the language's history, culture, and oral traditions. This article explores the often-overlooked aspect of language learning: folklore. It provides a general overview of folklore and presents a comparative analysis of English and Uzbek folk traditions, highlighting both their unique and shared features.

Keywords: folklore, myth, legend, children's folklore, humor, fairy tale, askiya, lof, King Arthur, tall tales, verbal folklore.

Как известно, каждый человек, начинающий изучение нового языка, обычно в первую очередь осваивает его грамматику и лексику. Однако этих элементов недостаточно для полного овладения языком. Для достижения подлинной языковой компетенции, особенно на уровне носителя, необходимо глубокое понимание истории, культуры и устного народного творчества изучаемого языка. В данной статье рассматривается малоизученный аспект овладения языком — фольклор. Представлен общий обзор фольклора, а также проведён сравнительный анализ английских и узбекских фольклорных традиций, с акцентом на их сходства и различия.

Ключевые слова: фольклор, миф, легенда, детский фольклор, юмор, сказка, аския, лф, король Артур, невероятные истории, устный фольклор.

Bugungi globallashuv jarayonida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda, ayniqsa yoshlar orasida Ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab

boshqa tillarni o'rganishga qaraganda ancha yuqori. Biroq, juda ko'pchilik til o'rganuvchilar ma'lum bir tilni o'rganishni maqsad qilar ekan, o'sha tilning grammatikasini o'zlashtirishni asosiy maqsad qilib olib, keyingi pog'onaga so'z boyligini oshirish ya'ni o'sha tilning lug'atlarini yodlashni va ularni muloqot jarayonida qo'llashni boshlashadi.

Bu esa, til o'rganishdagi asosiy xatolardan biri desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Har bir xorijiy tilni o'zlashtirib, mahalliy aholi singari o'sha tilda ravon va aniq gapirishni istagan xorijiy til o'rganuvchilar uchun folklor atamasi tanish bo'lishi, uning bir qancha turlaridan nutq jarayonida izchil foydalanishi kerak. Masalan, shunday turlar sirasiga maqollar, matallar, ballada va dostonlar kabi bir qancha folklor janrlari kiritiladi.

Dastavval xalq og'zaki ijodi atamasiga yohud "folklore" termini tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Folklor termini birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo'llangan bo'lib, u ikki so'zdan iborat –«folk» xalq, «lore» –bilim, donolik, donishmandlik, ya'ni «xalq donishmandligi» demakdir. Xalq og'zaki ijodi yohud folklor ma'lum bir xalqning an'anaviy urf-odatlarini, qadriyatlarini, e'tiqodlarini va o'ziga xos milliylikini namoyish qiluvchi, bir avloddan ikkinchisiga og'zaki tarzda o'tib keluvchi xalq donishmandligi namunalarini, ya'ni afsona va rivoyatlarini, maqol va matallarini, tez aytishu topishmoqlarini, qo'shiq, raqs va hikoyalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Xalq og'zaki ijodiga oid doston, ertak, qo'shiq, maqol va boshqa janrlarda ilgari surilgan g'oyalar asrlar davomida xalqning yosh farzandni tarbiyalash vositasi bo'lib kelgan[2]. «Folklor» deganda asosan xalq og'zaki tushuniladi. O'zbek folklorshunosligiga «folklor», «o'zbek folklori» terminlarini birinchi marta H.Zarif kiritdi (1934-35 yy).

Ingliz folklori ingliz xalqining bir necha asrlik tarixiy ildizlariga ega bo'lib, uning tarkibiga Ingliz afsona va rivoyatlari, milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi san'at namunalari, raqs va qo'shiqlari, hikoyalari, maqol va tez aytish kabi o'zbek xalq og'zaki ijodi uchun ham tanish bo'lgan folklor namunalari bir biriga o'xshamaydigan ikki tilning bir maqsad uchun yaratilgan o'xshash janrlari haqida so'z yuritadi.

Ingliz folklori uchun xos bo'lgan terminlarni tahlil qiladigan bo'lsak, "myth" termini o'zbek xalq og'zaki ijodidagi "mif" termini shaklida o'giriladi va ushbu janr payo bo'lish tarixiga ko'ra eng qadimgi xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri hisoblanadi va u borliqning paydo bo'lishi haqidagi ibtidoiy tasavvurlar majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga oladi. "Legend" ya'ni afsonalar janri uydirma va to'qimadan iborat bo'lsada, so'zlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqatdek tasavvur etiladi, hatto bo'lib o'tgan davri, makon ham ko'rsatiladi.

Afsonalar og'izdan-og'izga, eldan-elga o'tib kelgan, ifoda usuli bayon tarzida. Afsonalar og'zaki hikoyat bo'lib, u xayoliy obraz yoki tasavvur asosiga quriladi, hikoya qiluvchilar va tinglovchilar tomonidan qachonlardir shunday bo'lgandek qabul qilinadi. Ayrim folklorshunos olimlar taxminlariga ko'ra afsonalar miflardan keyin, ertaklardan oldin paydo bo'lgan

Ingliz afsonalari namunalaridan biri bo'lgan "King Arthur" ya'ni qirol Artur haqidagi hikoyalar tarixiy ildizi noma'lum bo'lgan, yohud tarixda yashab o'tgan deb taxmin qilingan, dumaloq stol atrofida ritsarlari bilan bo'lajak jang safarlarini rejalashtirgan Ingliz qahramoni haqidagi afsonalarni hozirgi kunda butun dunyo xalqlari yaratilgan filmlar orqali tasavvurlariga allaqachon sig'dirib bo'lishgan.

Yana bir mashhur ingliz afsonalaridan biri "Robin hood", shlyapali Robin, boylarni to'nab, kambag'al qashshoqlarga yordam bergan qahramonning ham aslida tarixda yashab o'tgan -o'tmagani haqida yetarli dalillar mavjud emas. Bunday afsonalardan yana bir nechtasini sanab o'tsak ham bo'ladi: "Loch Ness Monster"- Lok Nex ko'li maxluqi, "Green man" –yashil odam, "Red Cap"-qizil qalpoqcha va boshqalar.

Shuningdek, o'zbek xalq og'zaki ijodi uchun "Rivoyat" janri ham tanish bo'lib, ular afsonalardan hayot haqiqatiga anchayin yaqinligi bilan farq qiladi. Agar afsonalar to'laligicha ajdodlarimiz tomonidan to'qib chiqarilgan hikoyalardan iborat bo'lsa, rivoyatlar zahirida tarixiy voqealar yoki tarixiy shaxslar yotadi.

Yana bir folklor janri hisoblangan "Tall tales" janri o'zbek folklorshunosligidagi "Lof" janriga qiyoslanib, unda voqea hodisalar o'tkir yumor yoki bo'rttirilgan hazil mutoyiba shaklida hikoya qilinib, biror bir voqea- hodisa haqida mahorat bilan to'qilgan yolg'on gap, mubolag'a, maqtanchoqlik tushunchalarini o'zida aks ettiradi. Shuningdek, o'zbek folklorshunosligida "Askiya" va "Latifa" kabi yana boshqa yumoristik janrlar ham mavjud bo'lib, ularning asosiy farqlari esa albatta ularning hajmida hisoblanadi.

Latifalar xalq og'zaki ijodining hajm jihatidan kichik nasr ko'rinishidagi janri hisoblanadi va unda ham kulgili voqea hikoya qilinadi. Shu o'rinda "humor" termini ham aynan Grek tilidan kirib kelgan va qadimda "humoral medicine"- kasalliklarni kayfiyatni ko'tarib, hazil -mutoyiba qilib, inson salomatligiga ta'sir etish uchun davolash usuli sifatida qabul qilingan tibbiy yo'nalishdan kelib chiqqan va aynan shu tarzda o'zbek tiliga ham "yumor" termini tarzida o'zlashib kirib kelganligini aytib o'tish bilan "yumor" terminiga ham ta'rif bergan bo'lamiz.

Ingliz folklorshunosligida shuningdek, "Verbal folklore", "Childlore" kabi atamalarga ham duch kelamiz, ularni izohlab o'tadigan bo'lsak, "Verbal folklore" og'zaki folklor bo'lib, og'izdan og'izga kuylanib yoki aytib o'tib keladigan xalq og'zaki ijodi namunalaridir va ularga maqollar, tez aytishlar, topishmoqlar, xalq qo'shiqlari va ertaklar kiritiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, og'zaki tarzda, ajdodlardan meros bo'lib, bir avloddan ikkinchi avlodga o'tib kelayotgan folklor janrlari tarbiyaviy

ahamiyat kasb etib, inslarni axloqiy tarbiyalash, ularga hikmat qoldirish, yaxshilik va yomonlik kabi abadiy tushunchalarni farqlay bilish uchun tarbiya quroli sifatida foydalanib kelinadi.

“Childlore” atamasi “child”-bola va lore- folklore atamasining qisqartmasidan hosil bo'lgan bo'lib, bolalar folklori janri sifatida salmoqli ahamiyat kasb etib keladi. Bizga ma'lumki, har bir xalq barcha zamonlarda ham o'z farzandlarining ma'naviy va jismoniy tarbiyasiga alohida e'tibor berib kelgan.

Jumladan, bolaga ilk kunlaridan, eng qadimgi xalq og'zaki namunalaridan biri sanalgan allalar kuylab berilgan, keyinchalik ertaklar aytib berilgan, xalqning donolik namunalari hisoblangan maqol va matallar bilan farzandlarning ma'naviyati yuksalishi yo'lida jiddiy ahamiyat berib tarbiya qilishgan, jismoniy sog'liklarini mustahkamlash uchun ota –bobolarimiz o'ynab kelgan milliy o'yinlar, quvlashmachoq, bekinmachoq, chillak va varrak kabi xalq o'yinlari har bir bolaga o'rgatilgan va milliylik ruhida tarbiya qilingan. Farzand nutqining rivojlanishi uchun tez aytishlar aytirilgan, topishmoqlar yordamida ularning aqliy salohiyatini o'stirishgan. “Ona g'oz ertaklarini” tinglamagan Ingliz bolalari bo'lmaganidek, “Zumrad va Qimmat”ni eshitmagan o'zbek bolalari topilmasa kerak. Bundan kelib chiqadiki, ham Ingliz ham O'zbek folklori namunasi bo'lgan Bolalar folklori zaminida yetuk farzand tarbiyasi, komil inson g'yasi yakdil maqsad sifatida xizmat qilgan.

Xulosa

Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi, xususan, ingliz va o'zbek folklori namunalarining til o'rganish jarayonidagi o'rni tahlil qilindi. Tilni mukammal egallash uchun faqat grammatika va lug'atga e'tibor berish yetarli emas, balki tilning madaniy va tarixiy kontekstini, xalq og'zaki ijodining boy merosini o'zlashtirish zarur. Folklor turkumiga kiruvchi afsona va rivoyatlar, maqollar, askiya, loflar, ertaklar, tez aytishlar, qo'shiqlar va milliy o'yinlar nafaqat xalqning tarixiy va madaniy qadriyatlarini saqlab qolishga xizmat qiladi, balki til o'rganuvchilarning nutqini boyitib, ularni ona tili sohiblariga yaqinlashtiradi.

Bolalar folklori, ya'ni “childlore”, ayniqsa, farzandlar tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. U bolalarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishida, nutq ko'nikmalarining shakllanishida faol vosita hisoblanadi. Ingliz va o'zbek folkloridagi bolalar folklori namunalarining umumiyliigi va o'xshashligi ikki xalqning tarbiyaviy qadriyatlaridagi mushtaraklikni ko'rsatadi.

Afsona va rivoyatlar orqali tarixiy voqealar va qadriyatlar avloddan-avlodga yetkazilib, maqollar va askiyalar orqali esa kunlik hayotning donoliklari ifodalanadi. Loflar esa jamiyatlardagi axborot almashinuvi va hazil-mutoyiba madaniyatining ajralmas qismi sifatida tilga boylik va ijodiy erkinlik kiritadi.

Shunday qilib, ingliz va o'zbek folklorining qiyosiy tahlili til o'rganuvchilar uchun chuqur madaniy bilimlarni egallashda va ona tiliga yaqin so'zlashuv darajasiga erishishda samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Folklorni, xususan, afsona, rivoyat, maqol, askiya va loflarni til o'rganish jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy til ta'limi metodikalarida muhim o'rin tutishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva, S. (2010). Bolalar folklori va uning tarbiyaviy ahamiyati. Toshkent: Akademiya Nashriyoti.
2. Jamolkhonovich Sayfullayev, Khurshid. Ingliz va o'zbek folklori janrlari orasidagi umumiylik xususiyatlari. <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/download/599/382/1548>
3. Karimov, M. (2015). Ingliz va O'zbek folklorining qiyosiy tahlili. Filologiya ilmiy jurnali, 5(2), 45–58.
4. Mannobova, L. A. (2024). Ingliz tilidagi turizm terminlari va ularning o'zbek tiliga o'girilishi. O'zbekistonda Fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 34-son, 69–73.
5. Madayev, O., & Sobitova, T. (2003). Xalq og'zaki poetic ijodi. Toshkent: Sharq nashriyot–matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.
6. Thoms, W. (1846). On the study of folklore. Journal of the Folklore Society.
7. Zarif, H. (1934–1935). O'zbek folklorshunosligining rivojlanishi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.